

O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Botirxuja Aziza Fahmuddun qizi
Toshkent moliya instituti o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha dunyoning yetakchi olimlari fikrlari o'rganilgan, O'zbekiston Respublikasiga turistik maqsada tashruf buyurgan xorijiy fuqorolarning 2018-2022-yillar oralig'idagi harakatlari tahlil qilingan, turistik klasterlar investitsion faoliyatini takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish imkoniyati keltirilgan, O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning rivojlanish bo'yicha asoslantirilgan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan hamda mamlakatimizda qo'llash bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Tayanch so'zlar. Investitsiya, turizm, YUNESKO, davlat-xususiy sheriklik, viza rejimi, qo'shma korxonalar.

DEVELOPMENT TENDENCIES OF ATTRACTING INVESTMENTS IN THE FIELD OF TOURISM IN UZBEKISTAN

Aziza Botirkhuja Fakhmuddin-kizi
Teacher of Tashkent institute of Finance

Annotation: In the article, the opinions of the world's leading scientists on the development trends of attracting investments to the tourism sector in Uzbekistan are studied, as the actions of foreign citizens who visited the Republic of Uzbekistan for tourist purposes in the period of 2018-2022 are analyzed, the mechanism of public-private partnership in improving the investment activity of tourist clusters is analyzed. the possibility of use is presented, justified conclusions and proposals on the development of attracting investments in the tourism sector in Uzbekistan are developed, and recommendations for application in our country are given.

Keywords: Investment, tourism, UNESCO, public-private partnership, Visa regime, joint venture.

1. Kirish

Turizm jahon iqtisodiyotida yuqori daromadli va jadal rivojlanib boruvchi sohalardan hisoblanib, xalqaro ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalarni mustahkamlashda muhim o'rin egallamoqda. Ekspertlarning baholashicha, XXI asrda jahon iqtisodiyotini harakatga keltiruvchi kuch turizm bo'ladi. Bugungi kundayoq foydaliligi bo'yicha turistik xizmatlar eksporti va importi jahon mahsulot aylanmasida uchinchi o'rinni egallamoqda va dunyo yalpi ichki mahsuloti (YaIM)da o'ndan bir qismni tashkil qilmoqda. Iqtisodiy faoliyatning ko'plab sohalari uchun turistik biznesini rivojlantirishning ahamiyati naqadar kattaligini baholash qiyin emas. Turizm tashqi iqtisodiy aloqalarda alohida o'rin tutadi. Undan olinadigan daromadlar xorijga mahsulot va mehnat chiqarmay turib, chet el valyutasini olishning muhim usullaridan biri hisoblanadi. Turistik biznesini "valyutaning ko'rinmas eksportchisi" deb atalishi bejiz

emas. Turizmdan olinadigan mablag' tushumlari daromadga aylanadi va iqtisodiyotning turli sohalarida aylanishda davom etadi. Eng yirik yuqori daromadli va eng dinamik tarmoqlardan biri bo'lmish, daromadligi bo'yicha faqat neft qazib olish va qayta ishlashdan keyin turadigan turizm, BTST tahliliga ko'ra, sayyoramiz ishlab chiqarish-servis bozorining 10 foizini ta'minlaydi. Dunyo ichki milliy mahsulotining 6 foizi, jahondagi investitsiyalarning 7 foizi, dunyo iste'mol xarajatlarining 11 foizi, butun soliq tushumlarining 5-6 foizi, har 16 ishchi o'rni turizm sohasiga to'g'ri keladi¹. Keltirilgan raqamlar turizm sohasi faoliyat ko'rsatishining bevosita samarasini tavsiflaydi.

Yuqorida qayd etilganlar kelib chiqib, turizmning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va unga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish masalasi bo'yicha chuqur ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishining zarurligi mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

2. Adabiyotlar sharhi.

Turizm sohasini rivojlantirish, uning iqtisodiyot taraqqiyotiga ta'sirini oshirish, turizm sohasiga investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirishning nazariy va amaliy jihatlari, uning moliyaviy masalalari xorijlik iqtisodchi-olimlardan Aleksandrova A.YU., Birjakov M.B., Kovalchuk A.P., Tishukov YU.V., Zaxarenko G.N., Papirayan G.A., Durovich A.P., Muxin D.E., Stolyarenko A.V. kabilarning ilmiy-tadqiqot ishlarida² tadqiq qilingan.

Mamlakatimizda turizm iqtisodiyoti, sayyohlikni rivojlantirish, turizm sohasining iqtisodiyot rivojiga ta'siri, sohaga investitsiyalarni jalb etish va rag'batlantirish masalalari iqtisodchi-olimlardan Abiev J.N., Adilova Z.D., Alieva M.T., Xaydarov N.X., Ruziev Sh.R., Xoshimov P.Z., To'raev Z.N., Parдав M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. ilmiy-tadqiqot ishlarida³ yetarlicha to'xtab o'tilgan. Biroq, mazkur tadqiqot ishlarining hech birida masala turizmning iqtisodiyot rivojiga ta'sirini oshirish va unga

¹ <https://daryo.uz/k/2018/02/23/shavkat-mirziyoyev-har-bir-turist-investitsiya-video/>.

² Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 470 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: «НП «Издательство «Невский Фонд», 2014. – 544 с.; Ковальчук А.П. Управление инвестиционной деятельностью в сфере туризма и гостиничного хозяйства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: ОТОУП МИПК РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. – 27 с.; Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. Практическое пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – 245 с.; Захаренко Г.Н. Ресурсный потенциал региональной дестинации и эффективность его использования в индустрии туризма: на примере Пермского края. Автореф. дис. ... канд. эконом. наук. – СПб.: ЦНИТ «АСТЕРОН», 2011. – С.22.;

Папираян Г.А. Международные экономические отношения. Экономика туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 208 с.; Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2009. – 320 с.; Мухин Д.Э., Столяренко А.В. Информационно-коммуникационная среда туристско-рекреационного предприятия Крыма, Таврический научный обозреватель. №1, 2017.

³ Abiev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Samarqand: SamDChTI, 2019. – B. 21.; Adilova Z.D. va boshq. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 124 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: "Fan", 2013. – 240 b.; Xaydarov N.X. Turizmning izchil rivojlanishida sohaga oid me'yoriy hujjatlarning tutgan o'rni. Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 1-son.; Ruziev Sh.R. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy-metodik asoslari. "Biznes-ekspert", 30.11.2018. №11(131), 2018. – B. 12-13.; Xoshimov P.Z., To'raev Z.N. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida // Iqtisod va moliya /, №7, 2012. – B. 50-55.; Parдав M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. Rekreatsiyon zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondoshuvlar. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi materiallari (2014 21-22 fevral) Samarqand, 2014. – B. 78-84.

investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish tarzida qo'yilmagan va tadqiq qilinmagan.

3. Tadqiqot metodologiyasi.

O'zbekistonda turizm sohasiga investitsiyalarni jalb qilishning rivojlanish bo'yicha dunyo olimlari va iqtisodchilari tomonidan olib borilayotgan tadqiqodlarni o'rganish, ma'lumotlar to'plash, to'plangan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintezlash, mantiqiy fikrlash kabi iqtisodiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi.

4. Tahlil va natijalar muhokamasi.

Mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy va tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratish, hududlarning ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, turizm tarmog'iga investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirish, milliy turizm mahsulotlarini yaratish va ularni jahon bozorlarida targ'ibot qilish, turizm sohasida O'zbekistonning ijobiy qiyofasini shakllantirish maqsadida "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonni amalga oshirish iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishga, tarkibiy o'zgartirishlar va diversifikatsiya qilishga, barcha mintaqalarni va turdosh tarmoqlarni kompleks ravishda ildam rivojlantirishning etakchi kuchi bo'lish imkoniyatiga ega mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmog'i sifatida turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlashga, shuningdek O'zbekistonning jozibador turizm markazi sifatidagi ijobiy qiyofasini shakllantirishga butun choralar bilan ko'maklashadi.

Mamlakatda turizmni milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, aholining daromadlari va turmush darajasini oshirish, mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta'minlovchi strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

"Viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizmni rivojlantirish uchun imtiyoz va preferentsiyalar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini berdi"⁵. Shu bilan birga, o'tkazilgan tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek chet el fuqarolarining toifalari, bo'lish muddatlari va maqsadlari bo'yicha dunyo amaliyotida keng qo'llaniladigan alohida viza rejimlarining mavjud emasligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, joylashtirish vositalari va infratuzilma obyektlarining, ayniqsa turizm mavsumida etishmasligi, turli transportlarda yo'lovchilarni tashish tizimining etarli darajada muvofiqlashtirilmaganligi, shuningdek, turistlarni mavjud turizm salohiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlashni tashkillashtirish darajasining pastligi, ichki turizmni, mamlakat hududlaridagi madaniy meros obyektlarining va ziyoratning o'ziga xosliklarini targ'ib qilish bo'yicha marketing kompaniyalarining samarasizligi turizmni jadal rivojlantirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Turizm industriyasi millionlab odamlarning tirikchiligini ta'minlaydi, milliardlab insonlarga esa o'z xalqi va boshqa mamlakatlar xalqlarining madaniy o'ziga xosligini,

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 6-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

⁵ <https://lex.uz/docs/4143188.sayti> ma'lumotlari


shuningdek, tabiat boyligini qadrlash imkoniyatini beradi.

Bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu borada O‘zbekistonda turizm industriyasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Markaziy Osiyoning qoq yuragida joylashgan O‘zbekiston Respublikasi o‘zining ko‘plab me’moriy yodgorliklari, ajoyib tabiat manzaralari, muhtasham saroylari, o‘tmish sivilizatsiyalari qal’alari xarobalari, eng yorqin madaniy tadbirlari, gastronomik lazzatlari va mashhur hunarmandchilik ustaxonalari bilan taniqli. Birinchi tashrifdanoq yurtimiz bu yerga qayta-qayta kelishga undaydigan g‘ayrioddiy tuyg‘ularni uyg‘otadi.

O‘zbekistonning har bir burchagi o‘ziga xos jihatlari bilan o‘ziga jalb qiladi – Toshkentda dunyodagi eng go‘zal metroda sayr qilish yoki xalifa Usmonning eng qadimgi Qur’oni Karim qo‘lyozmasini ko‘rish mumkin. YUNESKO madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy shaharlar – Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Xivada o‘tgan davrlar aks-sadosini saqlab qolgan eng qadimiy me’moriy yodgorliklarni ziyorat qilish, mamlakatning eng janubiy qismi – Surxondaryoda tog‘ daralari bo‘ylab sayohat qilish yoki Termiz yaqinidagi qadimiy shaharlar xarobalari bilan tanishish mumkin.

O‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son qarori bilan tasdiqlangan “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ning maqsadlaridan biri “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazishdir.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari



2-rasm. Tegishli yilning yanvar-iyun oylari uchun (mingkishi) ⁶

2022-yil yanvar-iyun oylarida O‘zbekiston Respublikasiga MDH davlatlaridan

⁶ Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

1780,4 ming chet el fuqarolari tashrif buyurib, bu jami kelganlarning 94,9 % ini tashkil etdi, boshqa davlatlardan – 95,9 ming kishi (yoki 5,1 %) tashrif buyurgan.

2021-yil yanvar-iyun oylarida MDH davlatlaridan kelganlar soni 2020- yilning shu davriga nisbatan 46,5 % ga kamaydi.

Boshqa davlatlardan kelgan turistlar soni esa, aksincha, 27,6 % ga oshgan. 2022-yilning birinchi yarmida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2,9 baravarga, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni 37,2 % ga oshdi.


2021-yil yanvar-iyun oylarida MDH davlatlaridan kelganlar soni 2020- yilning shu davriga nisbatan 46,5 % ga kamaydi.

Boshqa davlatlardan kelgan turistlar soni esa, aksincha, 27,6 % ga oshgan. 2022-yilning birinchi yarmida MDH davlatlaridan respublikamizga tashrif buyurgan fuqarolar soni 2,9 baravarga, boshqa mamlakatlardan kelganlar soni 37,2 % ga oshdi.

Turistik maqsadlarda O‘zbekistonga kelgan chet el fuqarolari sonining tahlili 2020-yilning I yarim yilligida (1216,1 ming kishi) 2019-yilning shu davriga (3034,8 ming kishi) nisbatan 1818,7 ming kishiga (-59,9 %) keskin kamayganini ko‘rsatmoqda.

2021-yilning yanvar-iyun oylarida ham (691,7 ming kishi) O‘zbekistonga kirib kelgan turistik oqimning qisqarishi kuzatildi, 2020-yilning shu davriga nisbatan 524,40 ming kishiga (-43,1 %) kamaygan. Ammo 2022-yilning birinchi yarmida 2021-yilning shu davriga nisbatan turistik oqimning o‘shishini kuzatish mumkin edi.

Shunday qilib, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonga kelgan xorijiy fuqarolar soni 1876,3 ming kishini tashkil etdi. 2021- yilning shu davriga nisbatan bu ko‘rsatkich 1184,6 ming kishiga, ya’ni. 2,7 martaga oshgan.



23-rasm. Xorijdan tashrif buyurgan chet el fuqarolari 1) tegishli yilning yanvar-iyun oylari uchun, ming kishi ⁷

Izoh: O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo‘shinlarining O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan chet el fuqarolari to‘g‘risidagi ma’lumotlari asosida shakllantiriladi.

⁷ Statistika agentligining ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha Turizm vazirligi tomonidan ham bir qator loyihalar hamda chora tadbirlar amalga oshirilmoqda jumladan:

- 2 ta Turizm sohasiga oid investitsion loyihalarni amalga oshirish belgilangan bo'lib, amalda 2 ta (100%) amalga oshirilgan.

- Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga 23,3 mlrd.so'm tushum tushurilishi belgilangan bo'lib, amalda 36,5 mlrd.so'm (156,7%) mablag' tushurilgan.

- 68 ta mehmonxona va 50 ta oilaviy mehmon uylari faoliyatini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda 42 ta (61,8%) mehmonxona va 31 ta (62,0%) oilaviy mehmon uylari tashkil etilgan.

- 2426,0 ming nafar xorijiy sayyohlar tashrifini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda 1433,0 ming nafar (59,1%) tashkil etilgan.

- 500,0 mln. AQSH dollarlik turizm xizmatlari eksportini amalga oshirish belgilangan bo'lib, amalda 500,0 mln. (100,0%) AQSH dollarlik xizmatlar ko'rsatilgan.

- "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali 101 ta topshiriq va vazifalar ijrosining ta'minlash belgilangan bo'lib, amalda 101 ta (100%) bajarildi.

- "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 1764,6 ming nafar fuqarolar sayohatini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda 1764,6 ming (100,0%) nafarini sayohati tashkil etildi.

- 750 nafar turizm va mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlar uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etish belgilangan bo'lib, amalda 764 nafari (101,9%) uchun malaka oshirish kurslarini tashkil etildi.

Joriy yilda dunyoning yetakchi mamlakatlarida bo'lib o'tgan 14 ta xalqaro turizm yarmarkalarida O'zbekistonning turistik salohiyati namoyish etildi.

Yil boshidan bugungi kunga qadar 30 ga yaqin O'zbekistonga xalqaro darajadagi info va press turlar tashkil qilindi.

Oxirgi 3 yilda turizm sohasida kadrlar tayyorlashga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalari soni 16 tadan 30 taga, ularda ta'lim oluvchi talabalar soni esa mos ravishda 4 100 nafardan 11 500 nafargacha oshgan. 2020 yilda oliy ta'lim muassasalarida turizm sohasida ta'lim beruvchi pedagoglarning ilmiy salohiyati 24,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilda ushbu ko'rsatkich 37,6 foizga yetdi.


Xalqaro tajribadan kelib chiqib, joriy yilda Turizm Qo'mitasi huzuridagi jami 10 ta professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarga amaliy darslarni o'rgatish maqsadida laboratoriya xonalari tashkil etildi. Ushbu maqsadlar uchun jami 3 mlrd so'mdan ortiq mablag'lar yo'naltirildi⁸.

Mazkur holat turizmni jadal rivojlantirish imkoniyatlarini ishga solish bilan birga bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilish imkonini beradi. Ammo uni rivojlantirish juda ko'p ichki va tashqi omillarga bog'liq. Mazkur omillarning ayrimlari soha samaradorligiga katta ta'sir o'tkazadi. Bunday omillardan biri – turizm sohasida mehnat samaradorligi bo'lib hisoblanadi. Chunki turizm sohasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u asosan insonlar muloqoti bilan bog'liqdir. Shu tufayli ishda mehnat salohiyatining natija ko'rsatkichiga va mos ravishda, mehnat salohiyati samaradorligining

⁸ <https://uzbektourism.uz/news/view?id=3030>

o'zgarishiga boshqa omillar ta'sirini hisoblash yo'llari ishlab chiqildi.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotga turistik tashkilotlar tomonidan yo'naltiriladigan investitsiyalar maqsadi birinchi navbatda foyda olishdir. Shu bilan birga, turistik xizmatlar hajmining oshib borishi turli soliqlar orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshiradi. Shu boisdan, turizmda infratuzilma ob'ektlari hamda turistlar uchun birlamchi qulayliklarni yaratish masalasi eng dolzarbdir. Bu borada davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish alohida ahamiyatga ega. Uning amal qilish mexanizmi quyidagicha (3-rasm).



3-pasm. Turistik klasterlar investitsion faoliyatini takomillashtirishda davlat-xususiy sheriklik asosida loyihaviy moliyalashtirish mexanizmi⁹

Bizning fikrimizcha turizm moliyaviy-investitsion faoliyatini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari sifatida davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish zarur deb hisoblaymiz. Bu o'z navbatda mavjud infratuzilma ob'ektlari sifatini yaxshilash hamda undan birgalikda samarali foydalanish, ortiqcha kapital tanqisligi muammosiga barham berish, qulay shartlar asosida moliyalashtirishni jalb etish imkoniyati, yakuniy turistik mahsulot ko'lamini belgilash imkoniyati, yangi texnologiyalar va takliflarni tijoratlashtirishni beradi va faoliyatda mavjud muammolar ko'lamini belgilash, ularni bartaraf etishda yordam qiladi.

⁹ X. X. Musayev "Turistik tashkilotlar moliyaviy-investitsion faoliyatini takomillashtirish" mavzusidagi iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi avtoreferati 2023-yil, 57 bet.

5. Xulosa va takliflar.

Turizmga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga real daromadning o'sishi, daromadni bir tekisda taqsimlash, valyutaning barqaror holatda bo'lishi va qulay kon'yunktura holati tegishli bo'lsa, salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatoriga iqtisodiy inqirozlar, sanoatning pasayishi (ishsizlikning o'sishi, oylik maoshning qisqarishi, vaqtinchalik ishlar), valyuta bilan ahvolning barqaror emasligi va noqulay kon'yunktura holati taalluqlidir.

Hozirgi kunda chet el sarmoyalarini jalb etmasdan investitsion faollikni oshirish va sarmoya resurslarini ko'raytirishning sira iloji yo'q. Xorijiy sarmoyaning faol ahamiyatini nafaqat AQSh, Germaniya, Fransiya kabi rivojlangan mamlakatlarda, balki Janubiy Koreya, Tayvan, Singapur, Gonkong singari Osiyoning tezlikda rivojlangan mamlakatlari hamda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlarida ham ko'rish mumkin. Qo'shma korxonalarini tashkil qilish, qo'shma ishlab chiqarish va turistik majmualarini hamkorlikda qurish uchun to'g'ridan-to'g'ri xorij sarmoyalarini jalb etish, amaldagi obyektlarni ta'mirlash va yangilash investitsion siyosatning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Qulay iqtisodiy sharoitlar va omillarni yaratish borasidagi islohotlarning samaradorligini oshirish, turizm sohasini jadal rivojlantirish bo'yicha ustuvor maqsad va vazifalarni belgilash, uning iqtisodiyotdagi o'rnini va ulushini oshirish, xizmatlarni diversifikatsiyalash va ularning sifatini oshirish hamda turizm infratuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan 2019-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Kontseptsiyasi yaqin istiqbolda sohaga investitsiya jalb qilishni faollashtirish hisobiga iqtisodiyot taraqqiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yo'naltirilgan va keng qamrovli investitsion siyosat turistik industriyani yaratish va moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim. Turizm sohasida bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichlarida turizmga sarmoya jalb qilishning an'anaviy davlat tizimidan bu sohada ro'y berayotgan jarayonlarni boshqarishning muhim vositasi sifatida foydalanish mumkin.

Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini va ularda joylashgan turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish borasidagi xorijiy tajribalardan kelib chiqib, O'zbekiston sharoitida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq: mamlakat mintaqalarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq ishlab chiqilgan strategiyasining zarurligi; iqtisodiy islohotlarning milliy modelini hisobga olgan holda nomarkazlashtirish, mintaqalararo integratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumiy tendentsiyalarga mintaqaviy siyosatni bosqichma-bosqich moslashtirish; mintaqalarda turizmni rivojlantirishda raqobat afzalliklarini, hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va salohiyatini e'tiborga olgan holda investitsiya siyosatni amalga oshirish; mintaqalarning barqaror rivojlanishi, shu jumladan, turizmni tartibga solishning asosiy omili sifatida infratuzilmalarni rivojlantirish.

Turizm qisqa vaqt ichida eng tez rivojlanayotgan va serdaromad sohaga aylanib ulgurdi. Shu bois ko'plab mamlakatlar ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish, tegishli infratuzilmani dunyo talablari darajasiga ko'tarishga harakat qilmoqda. Buyuk Ipak yo'lining markazlaridan birida joylashgan va tarixiy obidalarining ko'pligi jihatidan dunyoda etakchi o'rinlarda turadigan, xalqaro sayyohlik tashkilotlari tomonidan "Ochiq osmon ostidagi muzey" deya e'tirof etilgan O'zbekistonda ham bu tarmoqni

rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilyapti.

6. Adabiyotlar

7. Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник. – М.: Аспект Пресс, 2002. – 470 с.; Биржаков М.Б. Введение в туризм. – СПб.: «НП «Издательство «Невский Фонд», 2014. – 544 с.;

8. Ковальчук А.П. Управление инвестиционной деятельностью в сфере туризма и гостиничного хозяйства. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – М.: ОТОУП МИПК РЭА им. Г.В.Плеханова. 2006. – 27 с.;

9. Тишуков Ю.В. Потребитель на рынке туристических услуг. Практическое пособие. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2007. – 245 с.;

10. Захаренко Г.Н. Ресурсный потенциал региональной дестинации и эффективность его использования в индустрии туризма: на примере Пермского края. Автореф. дис. ... канд. эконом. наук. – СПб.: ЦНИТ «АСТЕРОН», 2011. – С.22.;

11. Папираян Г.А. Международные экономические отношения. Экономика туризма. Учебное пособие. – М.: Финансы и статистика, 2000. – 208 с.;

12. Дурович А.П. Организация туризма. Учебное пособие. – СПб.: «Питер», 2009. – 320 с.; Мухин Д.Э., Столяренко А.В. Информационно-коммуникационная среда туристско-рекреационного предприятия Крыма, Таврический научный обозреватель. №1, 2017.

13. Abiev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. – Samarqand: SamDChTI, 2019. – B. 21.;

14. Adilova Z.D. va boshq. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011. – 124 b.; Alieva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari. Monografiya. – T.: "Fan", 2013. – 240 b.;

15. Xaydarov N.X. Turizmning izchil rivojlanishida sohaga oid me'yoriy hujjatlarning tutgan o'rni. Davlat statistika qo'mitasining "O'zbekiston statistika axborotnomasi" ilmiy elektron jurnali. 2019 yil, 1-son.; Ruziev Sh.R. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining ilmiy-metodik asoslari. "Biznes-ekspert", 30.11.2018. №11(131), 2018. – B. 12-13.;

16. Xoshimov P.Z., To'raev Z.N. Turizm sohasi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili sifatida // Iqtisod va moliya /, №7, 2012. – B. 50-55.;

17. Pardaev M.Q., Islomova R.A., Gapparov A.Q. Rekreatsion zonalar va ekologik turizm ta'riflarini ishlab chiqishda nazariy va uslubiy yondoshuvlar. "Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida xizmat ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish muammolari" mavzusidagi materiallari (2014 21-22 fevral) Samarqand, 2014. – B. 78-84.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 6-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/4143188.sayti> ma'lumotlari

19. O'zbekiston respublikasi prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari <https://www.stat.uz/uz/>.

20. Raimjanova M., Popluga D. BIOECONOMY CONCEPT AND POSSIBILITIES OF ITS IMPLEMENTATION IN UZBEKISTAN AGRICULTURE FOR MAKING IT MORE ATTRACTIVE FOR INVESTMENTS //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2023. – №. 57.

21. Asrarovna R. M. FINANCING THE GREEN ECONOMY IN DEVELOPING

COUNTRIES: A FOCUS ON UZBEKISTAN //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 507-511.

22. Sangirova U. R. et al. Food logistics of dairy products in the food market of Uzbekistan //IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – IOP Publishing, 2020. – T. 918. – №. 1. – C. 012139.

23. Asrarovna R. M. Agricultural investments as the main factor increasing the agricultural sector's competitiveness //ECONOMIC SCIENCE FOR RURAL DEVELOPMENT 2020. – 2020. – C. 118.

24. Fakhmuddin-kizi B. A. FOREIGN EXPERIENCE IN FINANCING INVESTMENT PROJECTS FROM DECENTRALIZED SOURCES //EPRA International Journal of Environmental Economics, Commerce and Educational Management (ECEM). – 2023. – T. 10. – №. 11. – C. 8-11.

25. Botirxuja Aziza Fahmuddin kizi. (2023). ECONOMIC INDICATORS AND THEIR IMPACT ON STOCK PRICES. International Journal of Global Economic Light, 9(9). Retrieved from <https://eprajournals.net/index.php/JGEL/article/view/3172>

26. Botirxuja Aziza Fahmuddin qizi. (2023). FOND BOZORI ORQALI XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISH AMALIYOTI TAHLILI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 39–46. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/552>

27. Zokirova Feruza Farhod qizi. (2023). MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 47–54. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/553>

28. Raimjanova M. et al. The Consequences of the Pandemic on the Inflow of Foreign Investment Abroad and in the Republic of Uzbekistan //International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry “Interagromash”. – Cham : Springer International Publishing, 2022. – C. 3117-3124.

29. Aliqulov M. Эркин иқтисодий зоналар фаолиятини ривожлантиришда хориж тажрибаси (Россия Федерацияси мисолида) //Scienceweb academic papers collection. – 2020.

30. Alikulov Mekhmonali Salahiddin ugli. (2023). SPECIFIC CHARACTERISTICS AND TRENDS OF FINANCING THE AGRICULTURAL NETWORK. "MOLIYA-IQTISOD", 2(1), 55–61. Retrieved from <https://sciencepromotion.uz/index.php/MOLIYA-IQTISOD/article/view/554>

31. Aminova N. U. Q., Zukhurova M. S. Q., Tulagankhujaeva I. S. Q. INVESTMENT PROCESS AND INVESTMENT POLICY //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 219-225.

32. Kabilovna S. N. Features of investment risk analysis and assessment //Economic Science for Rural Development Conference Proceedings. – 2021. – №. 55.